


KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

7. UzDaily. “2025-2027 yillarda ilm-fan va innovatsiya sohasini raqamlashtirish, jarayonlarni optimallashtirish uchun yangi 14 ta axborot tizimi ishlab chiqiladi.” 23 may 2025.

8. Innovatsion rivojlanish agentligi. “Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan ilmiy va innovatsion faoliyatni raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar.” Innofund.uz. 27 dekabr 2024.

9. Teshayeva, G. M. “O‘ZBEKISTON – 2030 strategiyasi: raqamli jamiyatga o‘tishda axborot texnologiyalarining tutgan o‘rni.” Tadqiqotlar.uz, tahrirlangan maqola.

O‘ZBEKISTONNING INVESTITSIIYA MUHITI VA XORIJIY INVESTITSIIYALARNI JALB QILISH

Qo‘ldoshev Sanjar O‘tkir o‘g‘li
Sardor Sanjar Leader MCHJ buxgalteri.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, O‘zbekistonda yaratilgan investitsion muhit, qonunchilik tamonidan belgilangan tartib qoidalar, so‘ngi yillarda amalga oshirilayotgan investitsiyaga bog‘liq statistik ma‘lumotlar tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilishda o‘ziga xos xususiyatlari hamda ularning iqtisodiyotimizdagi roli keng o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, investitsion muhit, investor, iqtisodiy rivojlanish, xorijiy investitsiya.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qulay investitsiya muhitini yaratish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoyalarni faol jalb qilish, xorijiy hamkor davlatlar ishtirokidagi qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, shuningdek sohada faoliyat yuritayotgan mahalliy va xorijiy investorlarning huquqlarini har tomonlama kafolatlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu o‘rinda e‘tirof etish kerakki, O‘zbekistonda qulay investitsiya muhitini yaratish va uning jozibadorligini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Natijada xorijiy investitsiyalarni jalb etishning o‘ziga xos yo‘nalishi, ularni jalb etishni rag‘batlantirish tizimini yanada takomillashtirish orqali investitsiya faoliyatining huquqiy tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2025-yil 16-yanvar kuni investitsiyalarni keng jalb etish va eksportni oshirish bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda investitsiya va eksport bo‘yicha kelgusidagi asosiy vazifalarni belgilab berdilar. Investitsiyaning samaradorligini oshirish hudud va tarmoq rahbarlarining asosiy vazifasi bo‘lishi kerakligini alohida ko‘rsatganlaridek “Bu iqtisodiyotimiz o‘rishiga katta turtki beradi. Kafolatli xarid hisobiga, juda ko‘p yangi ish o‘rinlari yaratiladi, valyuta tejaladi va yondosh sohalar rivojlanadi. Buni hokimlar yaxshi tushunib, har bir loyihaning “ichiga kirib”, ishni unumli tashkil qilish kerak”.

2024-yilda esa xorijiy investitsiya 1,6 barobar o‘shib, 34,9 mlrd dollarni tashkil qilgan, qiymati 10 milliard dollarlik 242 ta yirik va o‘rta loyiha ishga tushirilgan, eksport ilk bor 27 mlrd dollarga chiqqan.

So‘nggi yetti yilda kiritilgan 120 mlrd dollarlik investitsiya hisobiga 6 mingdan ortiq korxona ishga tushirilgan. Jalb qilingan har 1 ming dollar investitsiya yiliga o‘rtacha 530 dollar qo‘shilgan qiymat yaratmoqda.

Globallashuv sharoitida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatlar o‘rtasida investitsiyaviy hamkorlik qilishning roli ortib bormoqda. Jahon mamlakatlarida barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy o‘shish sur‘atlari yuqori bo‘lgan rivojlanayotgan davlatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish mexanizmini takomillashtirish, ularning istiqbolli tarmoqlarga kirishini rag‘batlantirish va ulardan samarali foydalanish muammolari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish kengaymoqda. Chunki oxirgi o‘n yilda jahon iqtisodiyotidagi nobarqarorlik, turli tahdidlarning saqlanib qolayotganligi, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘shish sur‘atlarining pasayishi dunyoda xorijiy investitsiyalar oqimi hajmini tushib ketishiga sabab bo‘ldi. Mazkur holatlar tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi. O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash asosida uning raqobatdoshligini oshirish maqsadida xorijiy investitsiyalar, avvalo to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ustuvor yo‘nalish sifatida tanlangan.

Mamlakat hududlariga investitsiyalarni mutanosib ravishda joylashtirish milliy iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishining asosi hisoblanadi. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev raisligida bo‘lib o‘tgan 2019-yilning I choragida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarning amalga oshirilishini tahlil qilish bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi”. Investitsiya faoliyatini tartibga solishda va investitsiyalardan samarali foydalanishda eng muhim bo‘lgan masalalardan biri – bu chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni hududlar bo‘yicha optimal darajada bir tekis joylashtirish va xorijiy investorlarni hududlarga yanada ko‘proq jalb qilishdir.

Q. Xoshimov esa: “chet el investitsiyalari - chet el mulkdorlari tomonidan ma‘lum kapitalni bir iqtisodiyotdan mutlaqo boshqa mamlakat iqtisodiyotining qonun bilan ta‘qiqlanmagan turli tarmoqlariga aniq va noaniq risklarni hisobga olgan holda o‘z manfaatiga erishish, nisbatan yuqori darajada samara olish maqsadida muayyan muddatga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir” deya ta‘riflaydi [5]. Professor Sh.Mustafaqulov o‘z monografiyasida xorijiy investiyalarning mamlakat hududlariga ta‘sirini baholay turib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini mamlakat iqtisodiyotiga yo‘naltirish bilan bir qatorda, ijtimoiy-siyosiy masalalar ham hal etiladi...,

investorlarning qarorlariga nafaqat iqtisodiy naflik, balki ijtimoiy naflik ham sezilarli ta’sir ko’rsatadi deya ta’kidlaydi. [6]

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo’lsak, mamlakatimiz hududlariga xorijiy hamda mahalliy investitsiyalarni jalb qilishda quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilash maqsadga muvofiq:

– mamlakatimiz hududlarini iqtisodiy-ijtimoiy afzallik va tabiiy salohiyatini dunyo investorlariga yanada ko’proq ko’rsatishga qaratilgan tashviqot va targ’ibot, marketing ishlarini keng yo’lga qo’yish;

– mamlakat hududlarida mavjud tabiiy-resurs salohiyatini hisobga olgan holda, hududiy investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish. Bunda tabiiy-resurs, iqtisodiy, investitsion salohiyati yuqori bo’lgan Toshkent shahri, Toshkent, Samarqand, Farg’ona viloyatlariga imtiyozlar nisbatan kam yoki umumiy bo’lgan qattiq investitsiya siyosatini, Jizzax, Sirdaryo, Surxondaryo, Qoraqalpog’iston kabi hududlarga esa imtiyozlari nisbatan ko’proq bo’lgan yengilroq investitsiya siyosatini amalga oshirish;

– ishchi kuchiga talab yuqori hududlar va ish o’rinlari kam hududlarda alohida imtiyozlar joriy qilish (misol uchun, Farg’ona, Namangan va Andijon viloyatlarida ishchi kuchi soni ko’pligi va ish o’rni o’rtasida nomutanosibliklar mavjudligi bois yaratilgan har bir ish o’rni uchun imtiyozlar berish).

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilish va tadbirlarni amalga oshirish hududlar rivojlanishini va shu asosda milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va uning investitsiya salohiyatini ortishiga katta turtki bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Q.B. Xoshimov “Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish va uni takomillashtirish yo’llari” iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T. BMA. 2004, 7-b.
2. Q.B. Xoshimov “Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish va uni takomillashtirish yo’llari” iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T. BMA. 2004, 7-b.
3. Sh.I. Mustafakulov, Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. BMA. 2017. 208-b
4. Botirovna U. V. DIGITIZATION OF SERVICE SECTORS AND TRANSFORMATION INTO A CORRUPTION-FREE SYSTEM //The Conference Hub. – 2025. – C. 14-19.
5. Botirovna U. V. RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). – 2025. – №. 10. – C. 268-275.
6. Usmonova V. XIZMAT KO‘RSATISH SOHALARINING RIVOJLANISHI VA XIZMAT BOZORLARINING MUTANOSIBLIGI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14540045> //International scientific and practical conference. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 171-174.
7. Usmonova V., Zoirov A. FAN-TEXNIKA TARAQQIYOTI-QURILISH VA JAMIYAT TARAQQIYOTINING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHI